TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
19 20
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

Google scholar

PubMed MEDLINE

NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health | Advancing Health Through Knowledge



№11-SON

- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigiena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy reabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi


2026-yil, noyabr

tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz

https://t.me/tibbbiyot_2100


Litsenziya raqami: №745444













Tahrir hay’ati a’zolari:



BOSH MUHARRIR:
Shuhrat Baymuradov Abdujalilovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Iminov Komiljon Odiljonovich
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali 29.04.2025-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.

Tahrir hay’ati a’zolari:



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



Otamuradov Furqat Abdukarimovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



Shuxrat Jumayevich Teshayev
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Oral Aminovna Ataniyazova
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Jalolova Feruza Maxamatjanovna
Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), dotsent



Uraqov Shokir Ulashovich
tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)

Aripkhodjaeva Shakhzoda
resident doctor in national medical center

"TIBBIYOT TA’LIMI VA INNOVATSIYALARI" ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2024-yil 9-oktabrdan boshlab c-5669651 raqami ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:
+998 97 748 70 03
Email: @munis_sm

MUNDARIJA

ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТОВ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ОСТЕОМИЕЛИТА ВЕРХНЕЙ ЧЕЛЮСТИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА 22
Махкамов Зохидхужа Хасанхон угли, Рузиматов Акмалбек Санжарбек угли, Аллаяров Абдулло Улугбек угли

ASSOCIATION OF VARICOCELE SEVERITY WITH SEMEN PARAMETERS IN INFERTILE MEN FROM THE FERGANA REGION: A CROSS-SECTIONAL STUDY 27
Egamberdiyev Dilmurod Kamolitdinovich, Mo‘mindjonov Mansurjon Murodovich, Bozorov Shakhzodbek Rustamovich, Ibrokhimov Diyorbek Valijonovich, Turdiboyev Abduqodir Obidovich

PROFILAKTIK TIBBIYOTNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 34
Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna, Safarova Sanobar Omontashevna, Djumayeva Hikoyat Sharipovna

DISTONIYALI PUBERTAT DAVRIDAGI BOLALARDA PSIXOVEGETATIV BUZILISHLAR VA NEYROENDOKRIN FAOLLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI 38
Abdulxakova Ra’noxon Muxtaraliyevna

ОПТИМИЗАЦИЯ ХИРУРГИЧЕСКОЙ ТАКТИКИ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ПОСЛЕОЖОГОВОЙ РУБЦОВОЙ АЛОПЕЦИИ ВОЛОСИСТОЙ ЧАСТИ ГОЛОВЫ: СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МЕТОДОВ ПЛАСТИКИ 43
Ташходжаев Жасур Комилжон угли

OVOZ BOYLAMLARI O‘SIMTASIMON KASALLIKLARINING MORFOLOGIK VA GISTOLOGIK XUSUSIYATLARI 49
Nasiba Shavkatovna Rasulova, Gavxar Saidaxmatovna Xaydarova

ATEROSKLEROTIK KARDIOSKLEROZDA MIOKARD MIKROSIRKULYATOR O‘ZANINING YOSHGA BOG‘LIQ REMODELLANISHI 58
Butayev Sherzod Fayzulloyevich, Jumanov Z. E., Pirmatov S. V.

METABOLIK SINDROMDA YURAKNING ERTA STRUKTURAVIY VA FUNKSIONAL O‘ZGARISHLARI: DIFFUZ MIOKARD FIBROZIDAN OTISH FRAKSIYASI SAQLANGAN YURAK YETISHMOVCHILIGIGACHA 62
Zikrillayev Farrux Abdurashitovich

SARATON BILAN OG‘RIGAN BEMORLARGA TIBBIY YORDAM KO‘RSATISHGA YONDASHUVNING UMUMIY TAMOYILLARI 70
Atabekov Sanjar Nurmatovich

EKSPERIMENTAL GIPEROKSIGENATSIYADA KALAMUSHLAR BUYRAK TO‘QIMASIDAGI MORFOLOGIK VA IMMUNOGISTOKIMYOVIY O‘ZGARISHLARNING KISLOROD KONSENTRATSIYASI VA TA’SIR DAVOMIYLIGIGA BOG‘LIQ DINAMIKASI 79
Namozov Elyorbek Ilhomovich

КРАНИОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЛИЦЕВОГО СКЕЛЕТА У БОЛЬНЫХ С ОДНОСТОРОННЕЙ СКВОЗНОЙ РАСЩЕЛИНОЙ ГУБЫ И НЁБА ПОСЛЕ ХЕЙЛО- И УРАНОПЛАСТИКИ В РАННЕМ И ПОЗДНЕМ СМЕННОМ ПРИКУСЕ 87
Муртазаев Саидиало Муртазаевич, Юлдашев Темурхон Акрамович, Муртазаев Саидазим Саидазамович

ARTIFICIAL INTELLIGENCE FOR ULTRASOUND ESTIMATION OF FETAL WEIGHT: OPPORTUNITIES, EVALUATION METRICS, AND COMPARISON WITH THE HADLOCK FORMULA 93
Dilnoz Botirovna Ibrohimova

ЭТИОЛОГИЯ, КЛИНИКО-НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОПРОВОЖДЕНИЮ ДЕТЕЙ С СИНДРОМОМ ДАУНА 98
Насирова Нодира Хапизовна

ЭНДОТОКСЕМИЯ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ СИСТЕМНЫХ НАРУШЕНИЙ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ПАРОДОНТИТЕ 107
Мадмаров Махмуд Маъруфович

PSORIAZ KASALLIGINING PATOGENEZI, ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI: KLINIK YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR 112
Yo‘ldosheva Dilnoza Saidazim qizi

MORPHOFUNCTIONAL CHANGES IN THE PROSTATE GLAND IN ENVIRONMENTALLY INDUCED UROLITHIASIS AND UNDER NORMAL CONDITIONS, AND THEIR BIOCORRECTION 116
Mansurov Sardor Vali ugli

ВЛИЯНИЕ ИНГИБИТОРОВ ПРОТОННОЙ ПОМПЫ НА РАЗВИТИЕ ОСТЕОПОРОЗА: ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ, ФАКТОРЫ РИСКА И КЛИНИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ 123
Лутфуллаев Олтин Ойбек ўғли

BOLALARDA ATOPIK DERMATITNI DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULI 129
G‘aniyev Abdurashid G‘aniyevich

BOLALARDA ATOPIK DERMATITNI DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULI

G‘aniyev Abdurashid G‘aniyevich
Qo‘qon universitetining Andijon filiali,
bolalar kasalliklari propedevtikasi va pediatriya kafedrasi dotsenti,
t.f.n., Andijon, O‘zbekiston
E-mail: ganiev1957@mail.ru
ORCID: 0000-0002-7290-2404

Annotatsiya: Tadqiqotning maqsadi — ikkilamchi yuzaki stafilodermiya va kandidoz bilan asoratlangan atopik dermatitli bolalarda Triderm surtmasining klinik samaradorligi va xavfsizligini baholash. Tadqiqotga 7–18 yoshdagi 60 nafar bola kiritilib, ular ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhga 14 kun davomida kuniga ikki mahal Travokort preparati va gentamitsin surtmasi, ikkinchi guruhga esa Triderm surtmasi kuniga ikki mahal mahalliy qo‘llash uchun buyurildi. Kasallikning og‘irlik darajasi SCORAD indeksi, hayot sifati dermatologik hayot sifati indeksi (DLQI), xavfsizlik esa nojo‘ya ta’sirlar chastotasi orqali baholandi. Davolashning 14-kunida SCORAD ko‘rsatkichi birinchi guruhda 36±0,5 dan 17±0,5 gacha, ikkinchi guruhda esa 38±0,5 dan 6±0,5 gacha kamaydi. DLQI ko‘rsatkichi mos ravishda 19,7±1,1 dan 7,3±1,7 gacha va 19,9±1,3 dan 3,2±0,12 gacha pasaydi. Triderm guruhida S. aureus 4 (10%) holatda, Candida esa 1 (4%) holatda aniqlangan; taqqoslash guruhida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 12 (30%) va 8 (34,7%) ni tashkil etgan.

Kalit so‘zlar: atopik dermatit, bolalar, ikkilamchi infeksiya, kombinatsiyalangan topik terapiya, Triderm, SCORAD, hayot sifati.

Abstract: The aim of this study was to evaluate the clinical efficacy and safety of Triderm ointment in children with atopic dermatitis complicated by secondary superficial staphyloderma and candidiasis. The study included 60 children aged 7–18 years, who were divided into two groups. Patients in the first group received Travocort and gentamicin ointment twice daily for 14 days, while patients in the second group received Triderm ointment twice daily over the same period. Disease severity was assessed using the SCORAD index, quality of life was evaluated using the Dermatology Life Quality Index (DLQI), and treatment safety was assessed based on the frequency of adverse events. On day 14 of treatment, the SCORAD score decreased from 36±0.5 to 17±0.5 in the first group and from 38±0.5 to 6±0.5 in the second group. The DLQI score decreased from 19.7±1.1 to 7.3±1.7 and from 19.9±1.3 to 3.2±0.12, respectively. In the Triderm group, S. aureus was detected in 4 (10%) cases and Candida in 1 (4%) case. In the comparison group, the corresponding figures were 12 (30%) and 8 (34.7%), respectively.

Key words: atopic dermatitis, children, secondary infection, combined topical therapy, Triderm, SCORAD, quality of life.

Аннотация: Цель исследования — оценить клиническую эффективность и безопасность мази Тридерм у детей с атопическим дерматитом, осложнённым вторичной поверхностной стафилодермией и кандидозом. В исследование были включены 60 детей в возрасте 7–18 лет, которые были разделены на две группы. Пациентам первой группы в течение 14 дней два раза в сутки назначали препарат Травокорт и мазь гентамицина, пациентам второй группы — мазь Тридерм с той же кратностью применения. Тяжесть заболевания оценивали по индексу SCORAD, качество жизни — по дерматологическому индексу качества жизни (ДИКЖ), безопасность лечения — по частоте возникновения нежелательных явлений. На 14-й день лечения показатель SCORAD снизился с 36±0,5 до 17±0,5 в первой группе и с 38±0,5 до 6±0,5 во второй группе. Показатель ДИКЖ уменьшился соответственно с 19,7±1,1 до 7,3±1,7 и с 19,9±1,3 до 3,2±0,12. В группе Тридерм S. aureus был выявлен в 4 (10%) случаях, а Candida — в 1 (4%) случае; в группе сравнения данные показатели составили соответственно 12 (30%) и 8 (34,7%).

Ключевые слова: атопический дерматит, дети, вторичная инфекция, комбинированная топическая терапия, Тридерм, SCORAD, качество жизни.

KIRISH

Atopik dermatit (AtD) bolalar dermatologik amaliyotida keng tarqalgan surunkali yallig‘lanishli dermatozlardan biridir. Kasallikda terining to‘siq funksiyasining buzilishi mikroorganizmlarning epidermis orqali kirishini osonlashtiradi va ikkilamchi bakterial, virusli yoki zamburug‘li infeksiyalarning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Ikkilamchi bakterial infeksiya AtDning eng ko‘p uchraydigan asoratlaridan biri bo‘lib, stafilodermiya va streptodermiya ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin [1, 11, 13]. AtD zo‘rayish davrida ham, remissiya davrida ham epidermal to‘siq funksiyasining buzilishi bilan kechadi. Bunda seramidlar miqdorining kamayishi, erkin xolesterin va yog‘ kislotalari nisbatining o‘zgarishi, lamellyar tanachalar sekretsiyasining buzilishi, filaggrin ishlab chiqarilishining kamayishi hamda tabiiy namlantiruvchi omil miqdorining pasayishi muhim ahamiyatga ega [1, 5, 8, 9]. Ushbu o‘zgarishlar teri kseroziga, allergenlarning teriga o‘tkazuvchanligi ortishiga va surunkali yallig‘lanish jarayonining davom etishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

AtD bilan og‘rigan bemorlarda *Staphylococcus* spp., jumladan, *S. aureus*, *Streptococcus* spp., shuningdek, *Candida* va *Malassezia* avlodlariga mansub zamburug‘lar aniqlanishi mumkin [2, 5, 7, 11, 13]. Mikroorganizmlar kolonizatsiyasi va epidermal to‘siq funksiyasining buzilishi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir yallig‘lanish jarayonini kuchaytirib, kasallikning davomiyligi va og‘irlik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi [4–6, 9, 10]. Yengil va o‘rtacha og‘irlikdagi, ikkilamchi mikrobiologik kolonizatsiya bilan kechuvchi holatlarda topik davolash muhim o‘rin tutadi [4, 7, 8, 12]. Triderm preparati tarkibida betametazon, klotrimazol va gentamitsin sulfat mavjud bo‘lib, uning tarkibidagi komponentlar yallig‘lanishga qarshi, antibakterial va zamburug‘larga qarshi ta’sir ko‘rsatadi [3, 5, 6]. Shu sababli, ikkilamchi bakterial va zamburug‘li infeksiya bilan asoratlangan AtD holatlarida ushbu kombinatsiyaning klinik samaradorligini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot maqsadi: ikkilamchi yuzaki stafilodermiya va yondosh kandidoz infeksiyasi bilan asoratlangan o‘rtacha og‘irlikdagi atopik dermatitli bolalarda Triderm surtmasining klinik samaradorligi va xavfsizligini baholash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 7–18 yoshdagi, atopik dermatiti yuzaki stafilodermiya va yondosh kandidoz infeksiyasi bilan asoratlangan 60 nafar bola kuzatuvga olindi. Ishtirokchilar orasida 20 nafar o‘g‘il bola va 40 nafar qiz bola bo‘lgan. Barcha bemorlarda teri jarayoni diffuz xarakterga ega bo‘lib, kasallik zo‘rayish bosqichida va o‘rtacha og‘irlik darajasida kechgan. Bemorlar har biri 30 nafardan iborat ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruh (n=30) bemorlariga 14 kun davomida kuniga ikki mahal Travokort surtmasi bilan birgalikda gentamitsin surtmasi qo‘llanildi. Ikkinchi guruh (n=30) bemorlariga esa 14 kun davomida kuniga ikki mahal Triderm surtmasi qo‘llanildi. Stafilodermiya tashxisi barcha bemorlarda bakteriologik tekshiruv orqali tasdiqlangan.

Dastlabki tekshiruv natijalariga ko‘ra, birinchi guruhda 23 (57,5%), ikkinchi guruhda esa 25 (62,5%) bemorda bakterioskopik usul yordamida mikroorganizmlar aniqlangan. Teri jarayonining og‘irlik darajasi va davolash dinamikasi SCORAD indeksi yordamida baholandi. Bemorlarning hayot sifatidagi o‘zgarishlar dermatologik hayot sifati indeksi (HSDI) orqali aniqlandi. Davolash xavfsizligi nojo‘ya ta’sirlarning yuzaga kelish chastotasi asosida baholandi. Tadqiqot natijalari davolash boshlanishidan oldin va davolashning 14-kunida qayd etildi. Ushbu ishda randomizatsiya usuli, bemorlarni guruhlarga taqsimlash mezonlari, tadqiqotga kiritish va chiqarish mezonlari, etika qo‘mitasining ruxsati hamda statistik tahlil usullari batafsil bayon qilinmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davolash boshlanishidan oldin birinchi guruhda SCORAD indeksi 36±0,5, Triderm qo‘llangan ikkinchi guruhda esa 38±0,5 ni tashkil etdi. Davolashning 14-kunida ushbu ko‘rsatkich birinchi guruhda 17±0,5 gacha, ikkinchi guruhda esa 6±0,5 gacha kamaydi. DLQI ko‘rsatkichi davolash boshlanishidan oldin birinchi guruhda 19,7±1,1, ikkinchi guruhda esa 19,9±1,3 ni tashkil etdi. Davolashdan keyin ushbu indeks mos ravishda 7,3±1,7 va 3,2±0,12 gacha pasaydi. Shunday qilib, Triderm qo‘llangan guruhda hayot sifati ko‘rsatkichining yaxshilanishi yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Topik davolashning 14-kunida *S. aureus* birinchi guruhdagi 12 (30%) bemorda, Triderm qo‘llangan guruhdagi 4 (10%) bemorda aniqlangan. *Candida* avlodiga mansub zamburug‘lar esa mos ravishda 8 (34,7%) va 1 (4%) bemorda qayd etilgan. Davolash xavfsizligini baholash jarayonida birinchi guruhdagi 5 (12,5%) bemorda preparat qo‘llangan sohalarda mahalliy achishish kuzatilgan. Triderm qo‘llangan guruhda nojo‘ya ta’sirlar qayd etilmagan.

Olingan natijalar ikkala davolash guruhida ham teri jarayonining og‘irlik darajasi va klinik ko‘rsatkichlar yaxshilanganini ko‘rsatadi. Biroq davolashning 14-kunida SCORAD va DLQI ko‘rsatkichlarining Triderm guruhida pastroq bo‘lishi ushbu kombinatsiyalangan topik terapiya fonida klinik holat va hayot sifati yaxshiroq

o‘zgarganini ko‘rsatadi. Triderm guruhida *S. aureus* va *Candida* aniqlanish chastotasining taqqoslash guruhiga nisbatan pastligi preparat tarkibidagi gentamitsin va klotrimazolning antibakterial hamda zamburug‘larga qarshi ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Betametazon esa yallig‘lanish va qichishish belgilarini kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu tadqiqotda preparat tarkibidagi faol komponentlarning alohida ta’siri mustaqil ravishda baholanmagan. Shu sababli kuzatilgan klinik va mikrobiologik natijalarni faqat bitta komponentning ta’siri bilan izohlash mumkin emas.

Taqqoslash guruhidagi 5 nafar bemorda mahalliy achishish kuzatilgan, Triderm qo‘llangan guruhda esa nojo‘ya ta’sirlar qayd etilmagan. Ushbu kuzatuv preparatlarning qisqa muddatli qo‘llanishidagi ko‘tarimliligi haqida ma’lum darajada xulosa chiqarish imkonini beradi. Biroq 60 nafar bemor ishtirok etgan tadqiqot va 14 kunlik kuzatuv davri preparatlarning uzoq muddatli xavfsizligi yuzasidan qat’iy xulosa chiqarish uchun yetarli emas. Tadqiqotning asosiy cheklovlari quyidagilardan iborat: ushbu ishda randomizatsiya va statistik tahlil usullari, kuzatuvdan keyingi uzoq muddatli natijalar hamda ayrim mikrobiologik ko‘rsatkichlar foizlarining hisob-kitobi to‘liq bayon qilinmagan. Shu sababli olingan natijalarni kengroq populyatsiyaga tatbiq etishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

XULOSA

Ikkilamchi yuzaki stafilodermiya va kandidoz bilan asoratlangan, o‘rtacha og‘irlikdagi atopik dermatitli bolalarda 14 kun davomida Triderm surtmasini qo‘llash SCORAD va DLQI ko‘rsatkichlarining pasayishi, shuningdek, *S. aureus* va *Candida* aniqlanish chastotasining kamayishi bilan kechgan. Taqqoslash guruhiga nisbatan Triderm qo‘llangan guruhda klinik ko‘rsatkichlar va hayot sifati yaxshiroq o‘zgargan, nojo‘ya ta’sirlar esa qayd etilmagan. Ushbu natijalar Triderm preparatini ikkilamchi bakterial va zamburug‘li infeksiya bilan asoratlangan ayrim holatlarda shifokor nazorati ostida qo‘llashning mumkin bo‘lgan klinik samaradorligini ko‘rsatadi. Bolalarda topik glyukokortikosteroid saqlovchi kombinatsiyalangan preparatlarni qo‘llashda bemorning yoshi, zararlangan teri maydoni, davolash muddati va preparatning rasmiy yo‘riqnomasi hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ганиев А.Г., Абдурахманов И.Т., Кутликова Г.М., Атахонова Н.С. Влияние атопического дерматита на качество жизни семьи больного ребёнка. Международный научный журнал «Научный импульс». Москва, 2025; 29(100), часть 1: 294–299.
2. Круглова Л.С., Львов А.Н., Аравийская Е.Р. и др. Практические вопросы применения эмолентов, содержащих модуляторы филаггрина, в ведении пациентов с атопическим дерматитом и ксерозом: резолюция Совета экспертов. Кремлёвская медицина. Клинический вестник. 2022;1:87–94. DOI: 10.26269/m4bj-f167.
3. Молохова Е.И., Сорокина Ю.В. Сравнительное изучение реологических характеристик оригинального препарата Тридерм и его дженериков в форме крема. Антибиотики и химиотерапия. 2014;59(5–6):3–5.
4. Невозинская З.А., Смолькина О.Ю., Корсунская И.М. Ксероз как основа дерматозов в пожилом возрасте. Клиническая дерматология и венерология. 2024;23(5):592–596. DOI: 10.17116/klinderma202423051592.
5. Панкратов В.Г., Поплавская Н.Б., Римко Е.Г., Джошкун Садеддин, Сухобокова Н.Н. Опыт использования крема Тридерм в дерматологической практике. Рецепт. 2012;3(83):130–138.
6. Тамразова О.Б., Молочков А.В. Комбинированные топические кортикостероиды в педиатрической практике: показания к применению и ошибки наружной терапии. Consilium Medicum. Дерматология. 2013;4:9–14.
7. Федеральные клинические рекомендации. Дерматовенерология. 2015. Москва: Деловой экспресс; 2016.
8. Хардикова С.А., Мартынова В.Г., Семченко Е.А. Применение косметических средств у пациентов с хроническими дерматозами (атопический дерматит, экзема). Клиническая дерматология и венерология. 2023;22(5):601–605.
9. Эмоленты в лечении атопического дерматита у детей. Педиатрическая фармакология. 2020;17(6):569–570. EDN JWQKZZ.
10. Machado S. Effective use of methylprednisolone aceponate 0.1% in a 9-month-old infant with atopic eczema and sleep disturbance. J Eur Acad Dermatol Venereol. 2012;26(Suppl 6):14–15.
11. Torrelo A. Successful treatment of widespread eczema and sleep disruption in a 7-month-old infant with methylprednisolone aceponate 0.1%. J Eur Acad Dermatol Venereol. 2012;26(Suppl 6):16–17.

12. Khamaganova I. Alleviation of a severe pruritic flare-up in a 13-year-old child with chronic atopic dermatitis treated with methylprednisolone aceponate 0.1%. J Eur Acad Dermatol Venereol. 2012;26(Suppl 6):20–21.
13. Torrelo A. Methylprednisolone aceponate 0.1% in the treatment of pruritic lichenified eczema in a 3-year-old child with chronic atopic dermatitis. J Eur Acad Dermatol Venereol. 2012;26(Suppl 6):18–19.

TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2026. № 11

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas’ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @munis_sm
Tel.: 97 748 70 03





Google scholar

PubMed MEDLINE
NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health
Advancing Health Through Knowledge